



ABU HANIFADAN QILINGAN RIVOYATLARDA IMON TAFSILOTI

Pardayev Abduvali Juman o'g'li.

O'zbekiston xalqaro Islom akademiyasi 2-bosqich magistranti.
Tel.: +998992022404; e-mail: amonabduvali@gmail.com
<https://doi.org/10.5281/zenodo.7972806>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 20-May 2023 yil
Ma'qullandi: 23-May 2023 yil
Nashr qilindi: 26-May 2023 yil

KEY WORDS

Imon, kufr, etiqodiy masala, tasdiq, ma'rifat, yaqin, iqror, islom, Farishta, Payg'ambar..

ABSTRACT

Maqolada imon va unga tegishli masalalar Abu Hanifa bilan Abu Muqotil as-Samarqandiy o'rtasida savol javob tariqasida bayon qilingan. Unga ko'ra, imon – til bilan iqror bo'lish va qalbida ham tasdiqlash zarur. Imonni tasdiqlash, ma'rifat, yaqin va hakazo so'zlar bilan nomlash tufayli uni mohiyati ko'paymaydi. Mo'minlarni iymoni Farishtalar, Payg'ambarlarni iymoni bilan bir hil. Lekin amalda ular bilan farqli va amal imonni bir juzi hisoblanmaydi.

Bugungi kun madaniyatlar, davlatlar, turli qarashlar ko'paygan paytdir. Bunday vaqtda sof etiqodni tushuntirish, uni anglash va keyingi avlodga yetkazib berish ahli ilmlar, din peshvolarini gardaniga tushadigan muhim ishlardan biridir. Imon haqiqatini anglash esa har bir musulmon kishi yaxshi tushunishi kerak bo'lgan dolzarb masalalarni avvalida turadi. Vatandosh olimlardan biri Abu Muqotil as-Samarqandiy ustoz Hanafiy mazhabi asoschisi Abu Hanifa (ra) bilan din usuli bo'lgan etiqodiy masalalarda savol javob qiladi va bu savol javobni Abu Muqotil as-Samarqandiy kitob ko'rinishiga keltirib unga "Al-alim val-muta'allim" deb nom bergan.

Asarda etiqodiy masalalar batafsil yoritilgan. Kitob avvalini Abu Muqotil as-Samarqandiy hamd va sano bilan boshlagach, to'g'ridan to'g'ri ustoziga yuzlanib savol javobga kirishganlar. Avvalda ustoziga ehtirom ko'rsatib o'tgan, va bu ehtiromlari bilan ustoz oldida kamtarin bo'lish, muhim narsalardan so'rash va hokazo tolibi ilmga zarur odob axloqlarni savol-javob asnosida ko'rsatib o'tganlar. So'ngra imon haqiqati va unga taalluqli masalalarga kirishganlar. Quyida ustoz va shogird suhbatini keltirib o'tiladi:

Abu Muqotil ustoz Abu Hanifadan "Menga imon nimaligini o'rgatsangiz", deb so'radi. Abu Hanifa shunday javob berdi: "Imon – tasdiq, ma'rifat, yaqin (ishonch), iqror va islom (bo'ysinib)dir. Insonlar tasdiq borasida uch turga bo'linadi. Ulardan ba'zilari Alloh taolo va U Zot keltirgan narsalarni qalbi va tili bilan tasdiqlaydi. Yana ba'zilari esa yuqoridagilarni tilida tasdiqlaydi-yu, qalbida esa yolg'onga chiqaradi. Uchinchi toifa qalbi bilan tasdiqlaydi, lekin tilida yolg'onga chiqaradi". Ahli sunna val jamoa etiqodi bayon qilingan boshqa asarlarda ham imonga xuddi shu kabi ta'riflar keltirilgan. Ya'ni bir insonda imon topilishi uchun amal shart emas, unda iqror va tasdiq topilishini o'zi kifoya. Amal esa imonni bir juzi hisoblanmaydi. Abu Hanifa (ra) ham shogirtlariga bergan javobida huddi shu narsa mujassam bo'lgan.

Abu Muqotil yana so'radi: "O'zim bilmaydigan masalani ochib berdingiz. Bu toifalar Alloh taolo huzurida ham musulmonmi?". Abu Hanifa (ra) javob berdi: "Alloh taolo va U Zot huzuridan kelgan barcha narsalarni, qalbi va tili birla tasdiqlasa, Alloh huzurida ham va insonlar nazdida u inson mo'min hisoblanadi. Kimki tili bilan tasdiqlab qalbi bilan yolg'onga chiqarsa, Alloh taolo huzurida kofir bo'ladi, insonlar nazdida esa mo' mindir. Chunki insonlar uni qalbini bilmaydi. Shu tufayli zohirda shahodatni iqror qilgani uchun ham boshqalar uni mo'min, deb chaqirishi lozim bo'ladi. Sababi ular qalbdagi narsalar ilmni bilishga mukallaf qilinmagan. Ulardan yana bir toifa Alloh huzurida mo'min lekin insonlar nazdida esa kofir bo'ladi. Bunga sabab, gohida inson qalbida Allohga imon keltirib, tilida biror yomonlikdan saqlanish uchun kufr kalimasini aytishi mumkin. Buni bilmaganlar uni kofir deydi vaholanki Alloh huzurida mo'min bo'ladi". Demak inson komil musulmon bo'lishi uchun tili bilan iqror qilishi va qalbida ham tasdiqlashi, ishonishi zarur. Agarda tili bilan iqror qilishga qandaydir mone'lik bo'lsa va majburan jonini saqlash uchun kufr kalimasini aytsa, yoki imonini yashirsa, u holda Alloh taolo huzurida mo' min bo'ladi, garchi jamiyat oldida kufrga hukm qilinsa ham. Bunday deyishga dalil; Imon keltirgani uchun shahid qilingan Yosir (r.a) o'g'li Ammor (r.a)ham aynan shu sababdan qattiq azob beriladi va bunday azobga bardosh berolmasdan kufr kalimasi og'zidan chiqib ketadi. Shunda imoni habata bo'lmaganini bayon qilib Alloh taolo Qur'oni karimni "Nahl" surasini 106-oyatini nozil qiladi. Oyat quyidagicha: **"Kimda-kim imondan keyin kufr keltirsa, magaram majburlansa vaholanki qalbi imonga limmo-lim to'la bo'lsa, lekin kimda-kim kufrga qalbini ochib bersa, unday kimsalarga Allohning g'azabi muqarrar va ularga ulug' azob bordir"**.

Ilmi tolib yana so'radi: "Menga haqiqatni bayon qilib berdingiz, lekin "Imon – bu tasdiq, ma'rifat, iqror, islom va yaqindir" degan gapingizda imon ko'payib ketmayabdimi?". Ustoz (ra) javob berdi: "Alloh seni isloh qilsin, xulosa qilishda shoshilmasdan, yaxshilab tahqiq qil. Senga aytgan gaplarimdan birortasini karoh ko'rsang, samimiy bo'lib uni tafsilotini so'ra. Chunki ba'zi bir gaplarni odamlar eshitib tushunmasdan yomon ko'radi va u gap egasiga badnom gaplar to'qib odamlar orasiga tarqatadi. Lekin bu odam gapini tafsiloti bordir, balkim men bilmagan boshqa ma'nosi bo'lsa kerak, boshqalardan tafsilotini so'ramaymanmi, balki qasd qilmasdan tilidan chiqib ketgandir, men birodaringa yomon gumon qilishimdan avval gapini asl ma'nosini bilishim kerak, demaydi. Abu Hanifa (ra) shogirtlariga bergan ushbu dakkilarida boshqa insonlarga ham ibrat bor. Chunki ustozlar, ulamolarga nisbati berilgan shu kabi ba'zi gaplarni tushunmasdan, haqiqiy mohiyatiga yetib bormasdan yoki rostdan ham aytganmikan, balkim dushmanlar tarafidan to'qilgan fitna emasmikan deb o'ylamay hukm chiqarib qo'yishi mumkin. Va bu ish bilan fitnaga sababchi bo'lish ham mumkin.

Tolibi ilm so'radi: "Alloh sizni sabot va tavfiq bilan siylasin, solih amallaringizda bardavom qilsin. Tanbehlarinigizni tushundim, qilgan ishim borasida meni kechirsangiz, chunki men bir talabaman. Menga tasdiq, ma'rifat, iqror, islom va yaqin kabi sifatlab berganlaringizni manzili, tafsilotini tushuntirib bersangiz". Ustoz (ra) javob berdi: "Bu sifatlar turli bo'lgani bilan ma'nosi birdir. Go'yo kishini inson, erkak, falonchi deb chaqirishga o'xshaydi. Chaqirilayotgan kishi bitta-yu, uni turli nom bilan ataydilar".

Tolibi ilm so'radi: "Alloh sizni rahmatiga burkasin, agarda o'zimga ilm ozligi, fikrim ojizligini sezmaganimda sizni huzuringizga kelmagan bo'lardim. Menda biror xunuk sifatni ko'rsangiz va bu tufayli sizga og'riq yetsa meni koyimasangiz. Chunki kasal kishini kasalligini muolaja qilishdagi mashaqqat tabib zimmasiga, ko'zi ojiz kishini ojizligidagi qiyinchiliklar esa

atrofdagilar zimmasiga tushadi. Xuddi shu kabi olimlar zimmasiga johillardan yetadigan aziyatlarni ko'tarish mas'uliyati tushadi. Darhaqiqat men bildimki, ba'zi gaplarni johil kishi eshitsu daxshatga tushadi, agar unga tafsiloti tushuntirilsa xotirjam bo'lib ko'ngli taskin topadi. Siz menga imon, tasdiq, yaqin, ixlos haqida qanday ham chiroyli tafsir qilib berdingiz. Ustoz yana menga tushuntirib bersangiz! "Imonimiz farishtalar, payg'ambarlarni imoni kabi" deb aytishimiz to'g'rimi? Vaholanki ular bizga qaraganda Alloh azza va jallaga itoatliroq". Ustoz javob berdi: "haqiqatda ular bizga nisbatan Alloh taolaga itoatkorroq va lekin senga aytganimdek imon amaldan boshqa alohida ish. Bizni iymonimiz ularni iymoni kabidir. Chunki U Zotni vahdoniyati, rububiyati, qudrati va Haqq taolo huzuridan kelgan barcha narsalarini, farishtalar iqror bo'lgani, Nabiylar, Rosullar tasdiqlagani kabi biz ham tasdiqlaganmiz. Mana shu jihatdan "Iymonimiz farishtalar iymoni kabi" deb bilamiz. Sababi farishtalar Alloh taolo oyatlarini ko'rib imon keltirgan barcha narsalariga, biz ham ko' rmasdan turib imon keltirganmiz".

Tolibi ilm yana so'radi: "Alloh sizni zafar quchganlar qatorida qilsin, qanday ham chiroyli tavsiflab berdingiz. Men hozirda imonimiz farishtalar imoni, tasdiqimiz farishtalar tasdiqi va yaqinimiz ularni yaqini kabiligini tushundim. Lekin ularni qo'rquvi, itoatkorligi bizdan ko' ra kuchliroqku? Johillar biror insonda xatolik ko'rsa, yoki musibat vaqtida jazavaga tushadigan bo'lsa, dushmandan qo'rqsa, havoyi nafsiga uchsa bu holni uni "iymoni zaifligidan" deyishadi". Ustoz javob berdi: "Johil kishilarni "Imoni zaifligidan" degan gapiga kelsak, bu gapi ularni "yaqin" so'zini tafsirini bilmaganidandir. "Al-yaqin bish shay" degani biror narsani shubha qilmaydigan darajada anglashga, bilishga aytiladi. Shahodat ahlini birontasi Alloh taolo, kitoblari, payg'ambarlari borasida shubha gumonga bormaydi va agarki har qanaqa gunohlar qilsa ham. Biz insonlardagi kechirmalarni o'zimizga taqqoslaymiz. Gohida bizda ham xato qilish bo'ladi, yoki musibat vaqtida jazavaga tushish, dushmandan qo'rquv bo'ladi lekin hecham Alloh taolo Zoti borasida va U Zot huzuridan kelgan narsalarni birortasida shubha gumon paydo bo'lmaydi. Shunday ekan bizdan boshqalarda ham shunday ishlar sodir bo'lsa, ular ham biz kabidirlar. Ammo "ularni qo'rquvi, itoatkorligi bizdan ko'ra kuchliroqku" degan gapingizga kelsak. Bunday bo'lishi bir necha xislatlar tufaylidir. Ulardan biri nubuvvat, risolat bilan fazilatli qilinganidek, boshqalarga nisbatan qo'rquv, rag'batda va yana jamiki chiroyli xulqlarda ham fazilatli qilinganlar. Yana boshqa bir xislati ular biz ko'rmagan ajoyibot-u farishtalarni ko'rishgan. Uchinchi xislati musibat yetgan vaqtida jazavaga tushushmaydi. To'rtinchi xislati esa boshqalarni ma'siyati sababidan ularga tushgan azobu uqubatlarni ko'rishgan va bu narsa ularni gunohdan to'silishiga sabab bo'lgan".

Mana shunday savol javob usulida etiqodiy masalalarni Abu Hanifa (ra) shogirtlari Abu Muqotil as-Samarqandiyga bayon qilib berganlar. Demak iymonimiz farishtalar, Payg'ambarlar imoni kabidir, amalni ham iymonni bir juzi sifatida qarash mumkin emas. Amalda insonlar bir biridan tafovut qilishadi. Imonini biror sabab bilan yashirsa, yoki joniga talofat yetish ehtimolidan kufr lafz tilidan chiqsa, musulmonlik doirasidan chiqmaydi. Farishtalar va payg'ambarlarga berilgan fazilatlar Alloh taoloning ularga bergan fazlu karami va uni xohlaganiga beradi, bu borada hech kimdan so'ralinmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Qur'oni karim.
2. Shayx Abdulaziz Mansur. Qur'oni Karim ma'nolarini tarjima va tafsiri: -Toshkent: Toshkent Islom universiteti nashriyot-matbaa birlashmasi. 2008.

3. Abu Muqotil as-Samarqandiy. Al-alim val mutaallim:
4. Abu Mansur al-Moturudiy, Tavi lot al-Qur'on. Doktor Bakr Topal boshchiligidagi ilmiy guruh tahqiqi. – Istanbul: Dor al-mezon, 2006.
5. Abdulqodir Abdur Rahim. Etiqod durdonalari. –Toshkent: O'qituvchi nashriyoti, 2020.
6. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Aqida at-Tahoviya sharhining talxisi. – Toshkent: "Hilol nashr" nashriyoti, 2014.
7. An-Naim. Arabcha-o'zbekcha lug'at. –Toshkent: Abdulla Qodiriy nashriyoti, 2003.

